

**OG‘IZ BO‘SHLIG‘I ONKOLOGIK KASALLIKLARIDA NORMAL
MIKROBIOTA**

¹Yodgorova N.T., ²Bektemirova Z.SH., ³Ibrohimov B.R.

Tashkent Medical Academy

¹Associate Professor of the Department of Microbiology, Virology,
Immunology, Ph.D.

yodgorova1977@bk.ru, +998901676838

²Student of the medical faculty of TMA

bektemirovazarnigor15@gmail.com, +998900049610.

³Student of the medical faculty of TMA

ibahodir101@gmail.com, +998901107036.

Abstract: Purpose of the study: Assessment of oral microbiota in oncological diseases of the oral cavity. Materials and methods: 20 patients with cancer in the oral cavity were selected from the surgical department No. 6 of the Republican Oncology Center: reconstructive, plastic surgery, head and neck tumors and onco-ophthalmology department. Their saliva was examined in the Bacteriological Laboratory of the TTA multidisciplinary clinic, and blood agar, VSA, endo, and Saburo media were used in the examination of patients. Antibiotic sensitivity was checked by disk diffusion method. Analysis and discussion of results. 75% of patients are men, 25% are women. In 15 patients, 10 men and 5 women, bacteria close to the normal microflora of the oral cavity, and pathogenic bacteria in 5 men were detected. Conclusion: Oral microbiota composition and functionality are now considered to be associated with mutational changes in oral cancer. During the examination of patients with

oncological diseases in the oral cavity, the bacteria detected in them are similar to normal bacteria, but they cannot be called completely normal (Staf. aureus 25%). The reason for this is explained by the fact that patients receive light therapy and take various powerful drugs. Such factors affect the normal microflora.

Keywords: oncological diseases, microbiota, bacteriological, pathogenic bacteria, hyperproliferation, light therapy.

Dolzarliligi. Inson og‘iz bo‘shlig‘i inson salomatligi va kasalliklarida muhim ro‘l o‘ynaydigan doimiy mikroflorani tashkil etuvchi turli xil mikroorganizmlar uchun noyob ekologik tizimdir (1,13). Og‘iz bo‘shlig‘i saratoni bosh va bo‘yin saratonining bir turi bo‘lib, og‘iz bo‘shlig‘ida joylashgan har qanday saraton to‘qimalarining o‘shidir. Bosh va bo‘yin saratoni dunyo bo‘yicha saratonning oltinchi eng keng tarqalgan shaklidir va har yili og‘iz bo‘shlig‘i va orofaringeal saratonning 500 000 ga yaqin yangi holatlari tashxislanadi (2,3). Bu shilliq qavatning shikastlanishi, epiteliy hujayralarining giperproliferatsiyasi va yallig‘lanish natijasida yuzaga keladi. Og‘iz bo‘shlig‘i mikrobiotasi 700 dan ortiq turdagi bakteriyalarning vakillarini o‘z ichiga oladi. Bosh va bo‘yin saratoning 40% og‘iz bo‘shlig‘i saratoni tashkil qiladi. Og‘iz bo‘shlig‘i saratonining 90% skuamoz hujayrali karsinoma bilan tavsiflanadi. Qo‘shma Shtatlarda og‘iz bo‘shlig‘i skuamoz hujayrali karsinomasi har yili taxminan 34 000 kishiga ta‘sir qiladi. Og‘iz bo‘shlig‘i saratoni bilan og‘rigan bemorlarning o‘rtacha 5 yillik omon qolishi 50% ni tashkil qiladi. Saratonning taxminan 95% 40 yoshdan odamlarda uchraydi. Tashxis vaqtida o‘rtacha yosh 60 yoshni tashkil qiladi (4,9). Og‘iz bo‘shlig‘i saratoni 90% hollarda tamaki va spirtli ichimliklar ichish natijasida kelib chiqadi. Dunyo bo‘yicha 800 million erkak va 200 million ayol tamaki iste‘mol qiladi. Har yili 281 000 dan ortiq erkak, 198 000 dan ayol va afsuski 150 000 dan oshiq bolalar og‘iz bo‘shlig‘i saratoni bilan hayotdan ko‘z yumadi(5,8,15). Og‘iz bo‘shlig‘i saratoni bilan kasallangan erkaklarning 95%i tamaki chekadi va spirtli ichimliklar iste‘mol qiladi. Ham chekuvchi va ham ichuvchi insonlarda, ichmaydigan insonlarga nisbatan ikki barovar, chekmaydigan insonlarga nisbatan 5 barovar, chekmaydigan va

ichmaydigan insonlarga nisbatan esa 35 barobar kasallik og‘ir kechadi (6,13). Ayollarning 62%idan ziyodi esa tamaki chekuvchi va spirtli ichimlik is‘temol qiluvchi otaning farzandi yoki turmush o‘rtog‘i hisoblanadi. Og‘iz bo‘shlig‘ida saraton uchrayotgan bolalarning ham ko‘p miqdori chekuvchi va ichuvchi otaning farzandi hisoblanadi (7,14). Bu saratonni davolashda birlamchi profilaktika maqsadida tamaki va spirtli ichimliklarning o‘rniga meva va sabzavotlarni ko‘paytirish tavsiya etiladi. Meva va sabzavotlar iste‘moli og‘iz bo‘shlig‘i saratonini 35% oldini olishga yordam beradi (10,11,12).

Tadqiqot maqsadi: Og‘iz bo‘shlig‘i onkologik kasalliklarida og‘iz mikrobiotasiga baho berish.

Tekshirish materiali va usullari: Respublika onkologiya markazi 6-son jarroxlik bo‘limi: rekonstruktiv, plastik jarrohlik, bosh-bo‘yin o‘smalari va onkooftalmologiya bo‘limidan 48 nafar og‘iz bo‘shlig‘ida saraton bo‘lgan bemorlar tanlab olindi. Ularning so‘lagi TTA ko‘p tarmoqli klinikasi Bakteriologik laboratoriyada tekshirildi va bemorlarning namunalari Qonli agar, VSA, Endo, Saburo muhitlari ekildi va ularning agar muhitlarda sutkalik mikrob koloniyalarini ko‘rdik, o‘sgan koloniya bakteriyalarini sof kulturasini aniqlash uchun kultural, tinktorial, morfologik xususiyatlariga ko‘ra baholadik. Ajratilgan koloniyalarni antibiotik sezuvchanligini aniqlash uchun neytral agarga ekib disk-diffuzion usuldan foydalanildi.

Natijalar tahlili va muhokamasi. 2023- yil yanvar oyida Respublika onkologiya markazi 6-son jarroxlik bo‘limi: rekonstruktiv, plastik jarrohlik, bosh-bo‘yin o‘smalari va onkooftalmologiyaga murojaat qilgan 48 nafar bemorlarning namunalari bakteriologik tekshiruvdan o‘tkazilganda quyidagi natijalar olindi. Umumiy bemorlar soni 48 nafar. Ularning 75% ini erkaklar, 25% ini ayollar tashkil qiladi. Ularning o‘rtacha yoshi 63 yosh. Bemorlarning 75% da normadan pasaygan, patogen bakteriyalar aniqlanmadi. 25% erkak bemorlarda patogen bakteriya aniqlandi. Bemorlardan olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki ularning namunalariida topilgan bakteriyalarning ko‘p soni og‘iz bo‘shlig‘i normal mikroflorasi bakteriyalariga o‘xshash lekin, bu bakteriyalarni to‘liq holda normal deyolmaymiz. Buning sababi saraton bilankasallangan bemorlarning kuchli antibiotiklar qa‘bul qilishi, nur terapiyasidan foydalanishi va boshqa omillar ta‘sirida ushbu mikroorganizmlarda antibiotiklarga nisbatan sezgirlik pasayib ketgan. Ushbu bakteriyalarning sof kulturasini ajratib olingandan so‘ng ularning

antibiotiklarga nisbatan sezgirligi aniqlandi. Bemorlardan olingan namunalardan olingan sof kulturalarning quyidagi antibiotiklarga nisbatan sezgirligini aniqladik. Bemorlarda aniqlanga Staf.aureus ga nisbatan quidagi antibiotiklarga sezgirligi aniqlandi. Diagramma-3 da ko‘rinib turibdiki levoflaksatsin, sefoksitin, klindomitsin ga yuqori darajada sezuvchan , glutamitsin, amikatsin, sefepim-sulbaktam, doksisisiklin o‘rtacha va past darajada sezuvchan.

XULOSA

- Og‘iz bo‘shlig‘ida saraton ko‘p hollarda zararli odatlar tamaki chakish, spirtli ichimliklar iste‘mol qilish kabi holatlar natijasida erkaklar orasida ko‘proq 75% kelib chiqadi ekan.

- Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda og‘iz bo‘shlig‘i onkologik kasalliklarida normal mikroflora ko‘p holatlarda me‘yorida pasaydi. Ularning o‘zgarishiga qa‘bul qilingan kuchli antibiotiklar, nur terapiyalari va boshqa omillar ta‘sir qiladi. Shu sababli og‘iz bo‘shlig‘i onkologik kasallilarida kam hollarda og‘iz bo‘shlig‘ida patogen bakteriyalar aniqlandi.

- Aniqlangan 25% bemorlarda Staf.aureus aniqlandi. Staf.aureus Levoflaksatsin, Sefoksitin, Klindomitsin, sefepim-sulbaktamlarga sezgirligi yuqori bo‘ldi. Boshqa antibiotiklarga nisbatan o‘rtacha va past darajada sezgirlik namoyon qildi. Eng past sezgirlik gatiflaksatsin, doksisisiklin, linkomitsinlarga nisbatan aniqlandi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Боровский Е.В. Терапевтическая стоматология. – М.: Медицина, 1989. – 554 с.
2. Зеленова Е. Г. Заславская М. И. Салина Е. В. Рассанов СП. Микрофлора полости рта; норма и патология: Учебное пособие. Нижний Новгород: Издательство НГМА. 2004-158с.
3. Ёдгорова, Н. Т., Халилов, З. С., & Жумамуродов, С. Т. (2019). СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ И ЛЕЧЕНИЯ РОТАВИРУСНЫХ КИШЕЧНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ. Innova, (2 (15)), 6-13.
4. Жумамуродов, С. Т., & Ёдгорова, Н. Т. (2018). Оценка качества пцр исследований с использованием метода «сухая пробирка» (Doctoral dissertation, Ташкентская медицинская академия).
5. З.А. Нурузова, С.Т. Жумамуродов. Видовая принадлежность бактериальных коинфекций при covid-19.

<http://repository.tma.uz/xmlui/handle/1/1631>

6. ЗР Файзуллаева, ФШ Маматмусаева ОНКОГЕН ВИРУСЛАРНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ вестник тма2022, сони 10, 43-46 <http://repository.tma.uz/xmlui/handle/1/5642>

7. Amagasa T, Yamashiro, and N. Uzawa. 2011. “Oral Premalignant Lesions: From a Clinical Perspective.” International Journal of Clinical Oncology 16 (1): 5-14.

8. Allen K, Ford PJ, Farah CS. Oral mucosal screening and referral attitudes of Australian oral health therapists and dental hygienists in Queensland. Int J Dent Hyg 2015; 13; 206-212.

9. Z.R.Fayzullayeva, N.T.Yodgorova, F.Sh.Mamatmusaeva CANDIDA turi zamburug'larining antifungal preparatlarga sezgirligi va umumiy tavsifi инфекция, иммунитет ва фармакология2022, 2 сон, 150-154 бет <http://repository.tma.uz/xmlui/handle/1/2307>

10. Safarov Sh.B., Yodgorova N.T., Jumamurodov S.T. IMPORTANT MICROORGANISMS IN UPPER RESPIRATORY TRACT INFECTIONS IN COVID-19 PATIENTS В сборнике: Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения инновации. сборник статей ЛII Международной научно-практической конференции : в 2 ч.. Пенза, 2022. С. 219-221. <https://elibrary.ru/item.asp?id=47563277>

11. Olson CM, Burda BU, Beil T, et al. Screening for Oral Cancer; A Targeted Evidence Update for the U.S. Preventive Services Task Force. Rockville (MD): Agency for Healthcare Research and Quality (US), <http://www.ncbi.nlm.gov/books/NBK132472/> (2013, accessed 23 March 2018).

12. Karpiński T. M . Role of Oral Microbiota in Cancer Development// Microorganisms.— 2019.— 7 (1): 20. Doi: 10.3390 /microorganisms7010020

13. Yodgorova N. T, Bektemirova Z. SH, Ibrohimov B. R. OG‘IZ BO‘SHLIG‘I ONKOLOGIK KASALLIKLARIDA MIKROBIOMANING AHAMIYATI// Международный современный научно-практический журнал/Научный импульс № 5(100) Январь 2023 г.Москва, Часть 4 С.296-306.

14. Yodgorova N. T, Bektemirova Z. SH, Ibrohimov B. R. OG‘IZ BO‘SHLIG‘I ONKOLOGIK KASALLIKLARIDA MIKROORGANIZMLARNING AHAMIYATI VA ANTIBIOTIKLARGA



**INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY CONFERENCE
“PROSPECTS AND KEY TENDENCIES OF SCIENCE IN
CONTEMPORARY WORLD”**

web: <http://journal.jbnuu.uz/>

SEGIRLIGI//Международный современный научно-практический журнал/
Научный импульс № 5 (100) Январь 2023 г. Москва Часть 4 С.279-285.